



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|--|
| 1. B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|---|
| 1. M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor
F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

ADABIYOTSHUNOSLIKDA MATN TAVSIFI

Saidova Rayhonoy Abdug'aniyevna,
Buxoro davlat pedagogika instituti professori

Annotatsiya. Adabiyotshunoslikda badiiy asar badiiy matnning ma'nodoshi sifatida tushunilib, tahlil va tadqiq etiladi. Matnshunoslik deb ataladigan fan tarmog'i ham mavjud bo'lib, unda qadimdan hozirgacha saqlanib qolgan turli qo'lyozma va bosma nashrlar ma'lum bir muammolar nuqtai nazaridan o'rganiladi. Shuningdek, matnga yangicha munosabat bilan qarash ham mavjud bo'lib, bunday qarash yigirmanchi asrning ikkinchi choragida strukturalizm, semiotika, freydizm, germenevtika singari ilmiy yo'nalishlar doirasida yuzaga keldi. Bu fan sohalari matnga an'anaviy yondashuvni inkor etmaydilar. Shu bilan birga, ularda matnni anglash an'anaviy yondashuvdan jiddiy farqlanadi.

Kalit so'zlar: matn, badiiy matn, mif, strukturalizm, semiotika, freydizm, germenevtika, konsept, bildiruvchi, bilinuvchi, belgi, semiologik tizim, tabu kodi, struktur antropologiya.

Аннотация. В литературоведении художественное произведение понимается, анализируется и изучается как синоним литературного текста. Существует также раздел науки, называемый текстологией, в котором различные рукописи и печатные издания, сохранившиеся с древних времен до наших дней, изучаются с точки зрения конкретных проблем. Существует и новый подход к тексту, возникший во второй четверти XX века в рамках таких научных направлений, как структурализм, семиотика, фрейдизм и герменевтика. Эти дисциплины не отвергают традиционный подход к тексту. В то же время их понимание текста существенно отличается от традиционного подхода.

Abstract. In literary criticism, a work of art is understood as a synonym for a literary text, analyzed and studied. There is also a branch of science called textual studies, in which various manuscripts and printed publications that have survived from ancient times to the present are studied from the point of view of certain problems. There is also a new approach to the text, which emerged in the second quarter of the twentieth century within the framework of such scientific directions as structuralism, semiotics, Freudianism, and hermeneutics. These fields of science do not deny the traditional approach to the text. At the same time, the understanding of the text in them differs significantly from the traditional approach.

Fan tarmoqlari, jumladan, filologiyada matnni ikki xil tushunish va ta'riflash mavjud:

1) an'anaviy nuqtai nazar. 1973-yilda chop etilgan o'zbek ensiklopediyasida shunday deyilgan:

“Tekst (matn – R. S.) lat. textus – to'qima) –

1) yozilgan yoki bosilgan asar, nutq (shuningdek, ularning biror parchasi);

2) kitob, gazeta, jurnal va sh.k.dagi turli ko'rsatkich (sharh, izohlardan ajralib turgan qismi);

3) musiqa asarlari (opera, roman va sh.k.)ga yozilgan so'zlar;

4) matbaada yirik shriftlardan birining nomi...”

Mustaqillik davrida chop etilgan “O'zbek milliy ensiklopediyasi”da ham matn yuqorida berilgan sharh asosida saqlanib qolgan, faqat matn va tekst atamalarining o'zni almashtirilgan. Mazkur istilohni shunday tushunish barcha fan sohalarida keng tarqalgan. Matn deganda, yozuv tarzidagi gaplarning majmuasi anglashiladi.

2) yangicha munosabat. Matnga bunday qarash yigirmanchi asrning ikkinchi choragida strukturalizm, semiotika, freydizm, germenevtika singari ilmiy yo'nalishlar doirasida yuzaga

keldi. Bu fan sohalarini matnga an'anaviy yondashuvni inkor etmaydilar. Shu bilan birga, ularda matnni anglash an'anaviy yondashuvdan jiddiy farqlanadi.

Strukturalist va semiotiklarning fikricha, matnga quyidagilar kiradi:

1) barcha yozuvlar;
2) rassomlik, haykaltaroshlik, badiiy adabiyot, musiqa kabi san'at sohalariga mansub ijod namunalari;

3) inson ruhiyati ifodalari;

4) xatti-harakat, yuz, ko'z ifodasi.

Yuqorida keltirilgan qaydlardan anglashiladiki, zamonaviy ilmiy oqimlar namoyandalari matnni faqat yozuvdan iborat, deb tushunmaydilar. Ular san'at asarlari, inson psixologiyasi va uning turli xatti-harakatlariga ham matn sifatida qaraganlar. Bunday munosabatning boisi shundaki, faqat turli-tuman yozuvlar, jumladan, badiiy adabiyot namunalariagina emas, san'at asarlari va odam harakatlarida ham har xil belgilar mavjud bo'ladi. Ana shunday belgilarni aniqlash, tahlil va talqin etish jarayonida ushbu belgilar tarkibidagi yashiringan fikr, nuqtai nazarlar, kengroq miqyosda olib qaralganda esa muayyan ta'limot, nazariya, mafkura, dunyoqarashlarni aniqlash va ularga ilmiy-nazariy asosda baho berish, zaruriy xulosalar chiqarish imkoniyati yuzaga keladi.

Strukturalizmning asoschisi hisoblangan Klod Levi Stross (1908-2009) o'z tadqiqotlarida, jumladan, "Struktur antropologiya" kitobida matn istilohini qo'llamagan. U, asosan, etnolog bo'lganligi sababli o'z ishlarida jahon, ayniqsa, Janubiy Amerika qabila va xalqlari xalqlari urf-odat, marosimlarini o'rgangan. U etnologiya va folklorshunoslikda yangi natijalarga erishish uchun Ferdinand De Sossyur (1857-1913)ning til strukturasi haqidagi nazariyasini etnologiya va mifologiyaga nisbatan tatbiq etadi. Aynan mana shu olimning sa'y-harakatlari natijasida yangi adabiyotshunoslikda dastavval miflar, keyinroq esa badiiy matnlar struktur-semiotik jihatdan o'rganila boshlangan.

Levi Strossning "Struktur antropologiya" monografiyasi o'n yetti bobdan tashkil topgan bo'lib, uning o'n birinchi bobi miflar strukturasi haqida bag'ishlangan. Ana shu bob bilan jahon filologiyasida so'z san'ati namunalari strukturasi asosida tahlil va tadqiq etish tarixi boshlangan.


Kitobning mazkur qismida miflararo unsurlarning o'zaro aloqa-tutashuvlari qadim yunonlarning Kadmos va Edip haqidagi miflari asosida ko'rib chiqilgan. Muallif ikki mifdagi Kadmosning Zevs tomonidan o'g'irlangan singlisi Yevropani izlashi, Edipning o'z onasi Iokastaga uylanishi, shuningdek, spartaliklarning birodarkushlik qirg'inida bir-birlarini o'ldirishlari, Edip o'z otasi Layni, uning o'g'li Etiokl esa akasi Polinikni halok etishi kabi voqealarning uyg'unligini ko'rsatish bilan birga ular orasidagi farqlarni ham qayd etadi: dastlabki munosabatlar o'sha vaqtlardagi axloqiy mezonlardan ko'ra yaqinroq aloqalarni ko'rsatgan, keyingisi esa yaqinlikning ziddi – raqiblik, dushmanlikni aks ettiradi. Olim mana shu munosabatlar uyg'un va zid bo'lishidan qat'iy nazar ular o'zaro birlashib, yagona strukturani vujudga keltirishga xizmat qilganligini ko'rsatgan.

An'anaviy adabiyotshunoslikda miflar insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida yaratilgani va bashariyat tafakkurining o'sha zamonlardagi darajasini bildirishi ko'rsatilgan. Levi Stross esa o'z tadqiqotida miflar yangi davrlarda ham yaratilishi va ular shu zamonga xos siyosiy-mafkuraviy qarashlarni ifoda etishini aniqlagan: "Mif o'tmish bilan birgalikda hozirgi zamon va kelajakni ham izohlaydi. Miflarning zaminida yotgan bunday ko'p planlilikni tushunish uchun muqoyasaga murojaat etamiz. Hech kim mifologiyani siyosiy mafkura sifatida tasavvur qilmaydi. Ehtimol, bizning zamonaviy jamiyatimizda keyingisi avvalgisining o'rnini bemalol egallab olgandir. Deylik, tarixchi Ulug' fransuz inqilobini eslay turib nima qiladi? U bir qancha oraliq qaytarilmas hodisalar orqali bizgacha yetib kelgan bo'lishiga qaramay oqibatlarini hanuz sezilib turgan o'tgan voqealarga murojaat etadi. Ammo siyosatchi va uni tinglaydigan muxlislari uchun fransuz inqilobi voqelikning boshqa tomoniga borib bog'lanadi: o'tmish voqealarining bunday izchilligi zamonaviy Fransiyaning o'z


hayotiyligini saqlab qolgan ijtimoiy qurilmasini anglash, uning ziddiyatlari hamda taraqqiyot yo'lini tushunish imkoniyatini beradigan namuna bo'lib qoladi". Bu iqtibosda atoqli olim fransuz inqilobiga belgi sifatida yondashgan. Uning fikricha, ushbu tarixiy hodisa siyosiy arboblardan uchun yangi tarixiy davrda mamlakat yaxlitligi hamda kuch-qudratini ifoda etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, fransuz inqilobi ular uchun tarixiy voqeliklarga emas, hozirgi davrda davlat buyukligini anglashga yordam beradigan ramz, boshqacha aytganda esa siyosiy-ijtimoiy mohiyat kasb etuvchi belgidir.

Klod Levi Stross garchi miflar yangi zamonlarda ham yaratilib, o'sha vaqtlardagi davlat mafkurasi, siyosatini targ'ib etish uchun xizmat qilishini ko'rsatgan bo'lsa-da, o'z ilmiy faoliyatida asosan qadimiy miflarni to'plash, tartibga solish va tadqiq etish bilan shug'ullangan. Uning izdoshi bo'lgan strukturalist, semiotik Rolan Bart (1915-1980) ustozidan farqli ravishda faqat zamonaviy miflarni o'rganish bilan shug'ullangan. Uning "Mifologiyalar" deb atalgan kitobi ikki bo'limdan iborat. Ushbu tadqiqotning asosiy qismi 1954-yilning sentyabridan 1956-yilning may oyi davomida "Lettres nouvelles" gazetasida e'lon etilgan. Rus tiliga qisqartirilgan holda tarjima qilinib, olimning "Избранные работы. Семиотика. Поэтика." to'plami (Moskva, 1989)ga kiritilgan.

Fasl muqaddimasida "El" deb atalgan jurnalda chop etilgan bir fotosurat tilga olinadi. Bu jamoaviy suratda Fransiyada ijod etayotgan 70 ta ayol ijodkor siymosi aks etgan ekan. Ular mushtariylarga taxminan quyidagicha taqdim etilgan: Jaklin Lenuar (ikki qiz, bitta roman), Marina Grey (bir o'g'il, bir roman), Nikol Dyutrey (ikki o'g'il, to'rtta roman) va sh.k. Rolan Bartning fikricha, bu surat faqat axborot uchungina e'lon etilmagan. Unda jamoatchilik ongiga yetkazilishi lozim bo'lgan yashirin ishora (kod yoxud belgi) mavjud. Chunki jurnalda surat bilan birgalikda qalamkash ayollarning nechta bola tuqqanlari-yu, qancha asar yozganliklari qayd etilgan. Biz fotosuratni belgi tarzida e'lon etilganligini ko'rsatish uchun chizmaga murojaat qilamiz:



Yigirmanchi asrga kelib nafaqat Fransiyada, balki butun dunyoda ham feminizm shiddat bilan rivojlana boshlaydi. Ayollar avvallari shug'ullanishlarini odat bo'lmagan sohalar (fan, texnika, biznes, tadbirkorlik, badiiy adabiyotda nasr) ga dadil kirisha boshlaydilar. Ana shunday vaziyatda jamiyatda nozik jins vakillari erkaklarga taalluqli sohalar, jumladan, yozuvchilik bilan shug'ullanishlari maqsadga muvofiq yoki yo'qmi, degan tabiiy savol tug'iladi. Chunki muqaddas diniy manbalar (Tavrot, Injil, Qur'on)da qiz bola dastlab ota-ona nazorati ostida yashashi, turmushga chiqqach, erining himoyasi ostiga o'tishi hamda unga farzandlar tug'ib berishi muqaddas burch sifatida ko'rsatilgan. Shunday qilib, bu muammo bir-biriga zid bo'lgan ikkita nuqtai nazarni o'z strukturasida ifoda etadi:



Bunday ikki xillik o'z-o'zidan jamiyatda bir-biriga qarama-qarshi guruhlarini yuzaga keltiradi. Bir guruh ayol oilada eriga itoat qilib, farzand tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lishi lozim deb hisoblasa, boshqasi uning ijod qilib o'z vatani va jahonga tanilishi mumkin degan qarashni olg'a suradi. Bunday ziddiyat esa ijtimoiy xavfsizlikka jiddiy putur yetkazishi mumkin. "El" jurnalida e'lon qilingan jamoaviy surat gazetxonlarga, kengroq miqyosda olib qaralganda esa fransuz xalqiga mo'ljallangan siyosiy-mafkuraviy ahamiyatga molik alohida belgidir. Uning konsepti (biz buni yuqoridagi chizmada ko'rsatdik) shunday qarashni ifodalaydi: ayol badiiy ijod bilan shug'ullanishi mumkin, lekin u oila qurib farzand tarbiyalashni ham yoddan chiqarmasligi kerak. Ko'rinyaptiki, yuqoridagi konsept mavjud hukumatning o'zaro zid bo'lgan ikki xil nuqtai nazarni kelishtirish g'oyasini ifodalayapti. Ma'lum bo'lishicha, davlat siyosati talablariga ko'ra mafkurachilar zamonaviy miflarni o'ylab topganlar, bu miflar ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan fotosurat, reklama, shior kabilarda ochiq-oshkora emas, ramziy-konnotativ tarzda belgilar yordamida ommaga taqdim etilgan. Bunday belgilar tizimi inson (xalq) tafakkuriga borib joylashgandan so'ng, bosh miyada avtomatik ravishda rasshifrovka etilgan va va o'ziga mo'ljallangan vazifani to'la-to'kis bajargan.

"Mifologiyalar" tadqiqotining birinchi qismida zamonaviy miflar keltirilib, ular sharhlangan bo'lsa, ikkinchi qismida mif nazariyasi bayon etilgan, unda mifning ta'rifi keltirilib, struktura sifatidagi asosiy xususiyatlari yoritilgan. Muallifning fikricha, har qanday bayon qilingan fikr mif bo'lavermaydi. Faqat alohida shart-sharoitlardagina nutqiy asar mifga evrila oladi.

"Mifik so'z xabardir. Uning og'zaki shaklda bo'lishi shart emas: xat yoki rassomlik namunasi, yozma nutq, fotografiya, kinematografiya, reportaj, sport musobaqalari, tomosha, reklama mifik xabarning moddiy tashuvchilari bo'lishi mumkin".

Rolan Bart mifning eng muhim xususiyati uning semiologik tizim ekanligida namoyon bo'lishini alohida ta'kidlab, shu bilan birga, isbotlab ko'rsatgan. Ma'lumki, har qanday tizim bir nechta uzvlarning o'zaro birikuvidan yuzaga keladi. Jumladan, mif ikkita unsur: bildiruvchi va bilinuvchining munosabatlari asosida shakllanadi. Olim bildiruvchining shakl, bilinuvchining konsept ekanligini qayd etish bilan kifoyalanmay, ularning har biriga xos alomatlarini ko'rsatib, oydinlashtirib bergan. Semiotikning ko'rsatishicha, bildiruvchi alohida olib qaralganda mazmunga ega emas, u faqat bilinuvchi bilan birikib belgi qurilmasini yuzaga keltirgandan keyin muayyan bir mazmunga ega bo'ladi.

Ma'lumki, F. De Sossyur til (nutq)ning semiologik tizim ekanligi haqidagi ta'limotni fanga olib kirgan. Badiiy adabiyot tilga asoslanib ish ko'rgani uchun u o'z-o'zidan mana shu tizimga suyanib ish ko'radi. Xuddi shu sababga ko'ra. Rolan Bart dastlab mif, keyin esa badiiy matn ustida izlanishlar olib borar ekan, til va so'z san'ati garchi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lsa-da, bitta tizimga mansub emasligini aniqlagan. Uning aniqlanishiga ko'ra, til(nutq) birinchi, mif (badiiy matn) ikkinchi semiologik tizim hisoblanadi. Alloma bu boradagi o'z qarashlarini quyidagi jadval orqali ko'rsatgan:

Til	1.Bildiruvchi	2.Bilinuvchi
Mif (badiiy matn)	3. Belgi I.BILDIRUVCHI	II. BILINUVCHI
III.BELGI		

Mazkur jadvaldan ma'lum bo'lyaptiki, til tizimidagi bildiruvchi va bilinuvchi o'zaro birlashib, shu tizimga mansub belgini hosil qiladi. Mana shu belgi til tizimidan mif yoki badiiy


matn tizimiga, ya'ni ikkinchi semasiologik sathga o'tgach, mif (badiiy matn)ning bilinuvchisiga aylanadi.

Bilinuvchi shaklga xos bo'lgan hodisadir. U o'z-o'zicha ma'no yoxud mazmun ifodalash xususiyatiga ega bo'lmaydi, faqat bilinuvchiga ishora qiladi. Binobarin, til yoki mifdagi belgi ikkala uzvining qo'shilishi tufayligina ma'no yo mazmun kasb etishi mumkin.

Bu fikrni Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasidan olingan bir parcha vositasida isbotlashga harakat qilamiz:

"Kampir tong qorong'usida xamir qilgani turib ho'kizidan xabar oldi".

Ushbu matniy parchadan til(nutq) va matn uchun belgi xususiyatiga ega bo'lgan kampir lisoniy birligini ajratib olamiz va dastavval birinchi semasiologik tizim doirasida tadqiq qilamiz:



Chizmadan ko'rinyaptiki, kampir so'zining bildiruvchisi olti fonemadan tashkil topgan bo'lib, ular faqat shakl holdagina mavjud, o'z holicha ma'no bildiray olmaydi. Bu bildiruvchi o'z bilinuvchisi bilan qo'shilgandagina, ham shakl, ham ma'no xususiyatiga ega bo'ladi hamda mustaqil bir ma'noni yuzaga keltiradi. Ammo mif (bu o'rinda badiiy matn) o'z mohiyatini birinchi semasiologik tizim doirasida to'la-to'kis ifodalay olmaydi. Shu boisdan u ikkinchi semasiologik tizimga ehtiyoj sezadi. Shu sababdan biz kampir lug'aviy birligini ikkinchi semasiologik tizim hududida tekshiramiz:



Ko'rinyaptiki, til doirasidagi bilinuvchi matn tizimida o'z mohiyatini o'zgartirib, bildiruvchiga evrilyapti, Bu esa uning badiiy matn hududida o'zgacha poetik-funksional xususiyat kasb etganligini ko'rsatmoqda. Bu tizimda kampir birligidagi keksa ayol tushunchasi asosiy o'rinda emas, chunki u bunday vazifani til tizimida bajarib bo'lgan. Matn doirasida kampir nega o'z nomi bilan atalmagan degan savol yuzaga chiqadi. Bu savolga shakl (bildiruvchi)ning o'zi bilangina javob berishning iloji yo'q. Hikoya matni doirasida kampir belgi sifatida tekshirilganda, ushbu birlik badiiy xronotop bilan bog'liq ekanligi ayonlashadi. Matnda bayon etilgan voqea yigirmanchi asr boshlarida chor mustamlakachiligi davri(zamon)da Turkiston(makon)da ro'y bergan. Bu davrda milliy-islomiy qadriyatga ko'ra ayol nomini yosh yoki keksa bo'lishidan qat'iy nazar oiladan tashqarida tilga olish odat bo'lmagan, ya'ni ayol nomiga tabu qo'yilgan. Bundan ma'lum bo'ladiki, birinchi semasiologik tizimda kampir ayolning qariligini anglatga, ikkinchi semasiologik tizimda bundan tashqari tabuni ham ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбек совет энциклопедияси. – Тошкент, 1973. – Б. 5
2. Ўзбек миллий энциклопедияси. 5-жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон милли энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 203.. – Б. 521.
3. Клод Леви Стросс. Структурная антропология. - Москва, 1985.
4. Ролан Барт. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. - Москва: Прогресс, 1989. - С. 48-141.
5. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. Олти томлик. Биринчи том. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967. – Б.59.
6. ABDUGANIEVNA, S. R. The Role of Semiotics in Literature. JournalNX, 6(09), 190-193.

7. Abduganievna, S. R. Semiotic Analysis of a Literary Text. International Journal on Integrated Education, 3(3), 51-56.

8. М.Б. Храпченко.Собрание сочинений в четырех томах. Том четвертый. Художественное творчество, действительность, человек. – Москва: Художественная литература, 1983. – С.240.